

Yanvar 5, 2026

Siz bilan hamkorlik

Hurmatli oilalar,

Umr davomida tizimimizda o'qituvchi, mudir va superintendant sifatida xizmat ko'rsatgan ustoz hamda Nyu-York shahar davlat maktablarida o'qiydigan ikkita o'quvchining otasi sifatida men maktablarimiz hamjamiyatimizning qalbi ekanini hammadan ham ko'proq tushunaman. Mukammal ishlagan holatlarda maktablar farzandlarimiz seviladigan, qo'llab-quvvatlanadigan va o'sishga rag'batlantiriladigan joylardir. Ular siz, oilalarimiz o'zlarini erkin va qadrli his qiladigan va har kuni imkoniyatlar yaratiladigan joylardir.

Boz ustiga, maktab tizimi sifatida biz maktablarimiz sinflardagi har bir bolaga berilgan va'dasini bajarishini ta'minlash uchun qiladigan ishlarimiz ko'p ekanini bilaman. Men ushbu lavozimga tavoze, tezkorlik va o'z mas'uliyatimni aniq tushungan holda kirishaman va sizlarga Nyu-York shahar davlat maktablari tizimining rahbari sifatida xizmat qilish men uchun katta sharaflar.

Men boshlang'ich sinflardan tortib bitiruvchilargacha bo'lgan o'quvchilarimiz xavfsiz, akademik barqaror va chinakamiga integratsiyalashgan maktablarda o'qishga arziydi deb hisoblayman. Oilalar farzandlari maktabda va maktabdan tashqarida xavfsiz va parvarish ostida ekanini his qilishlari borasida xotirjam bo'lishlari lozim. Ular farzandlari o'qishdan boshlab eng asosiy fanlarni o'rganayotganini va yuqori kutilmalar, kuchli o'qituv hamda ularga ishonch bildirgan o'qituvchilar qaramog'ida akademik maqsadlari sari qadam tashlayotganlarini bilishlari lozim. Undan tashqari, ular farzandlarining maktablari Nyu-York shaharni o'ziga xosligini aks ettirishini, shaharning boy xilma-xilligini madaniyatlarni tushunish va hurmat ko'rsatishni o'rganish orqali qabul qilishni kutishlari lozim. Biz uchun haqiqiy integratsiya aynan shuni anglatadi.

Bunday maqsadga erishish oilalar bilan mustahkam hamkorlikni taqozo qiladi. Ko'p hollarda tizimimiz oilalarning farzandlarining ta'lim olishida mazmunli ishtirok etishni qiyinlashtiradi. Men ota-onalarning ovozi va oilalarning ishtiroki ixtiyoriy bo'lishi emas, muhim ekaniga ishonaman. Oxirgi yillarda ijobiy o'zgarishlarga erishgan bo'lsak ham, biz bu ishni tezlashtirishimiz va oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda maktab hamjamiyatlarini kuchaytirishning yangi, yanada samaraliroq yo'llarini topishimiz lozim.

Bu yo'lda yangi bosqichni boshlar ekanmiz, men sizning fikrlaringizni bilishni istayman va sizlarni hamkorlar sifatida bu ishga qo'shilishga taklif qilaman. Sizlarning fikrlaringiz, tajribalaringiz va qarashlaringizni yetkazish imkoniyatlari borasida yaqin orada sizlarga



ko'proq ma'lumot ulashaman. Oldinda bizni muhim ishlar kutmoqda va kuchli maktablar tizimi oilalar va ta'lim beruvchilar ishonch va hamkorlikda ishlagan taqdirdagina quriladi.

Hamkorlik umidida,

Kamar H. Samuels, maktablar tizimi rahbari